XALQ DEPUTATLARI VOBKENT TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

200300, Vobkent tumani, Imom Buxoriy ko'chasi 55-uy, tel: (65) 33-22-131

2021 - yil 30 - noyabr VI-50-105-2-33-K/21 Vobkent tuman hokimligi

Vobkent tumani bo'yicha 2022 yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig'i stavkalarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429 va 437-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6121-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2021-yil 8-noyabrdagi № 06/04-01-32/2248 va 19/10-68220-sonli qo'shma xatlariga asosan Vobkent tumani bo'yicha yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlari va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer soliqlarining 2022 yil uchun soliq stavkalarini tartibga solish maqsadida Xalq deputatlari Vobkent tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2021-yil 8-noyabrdagi № 06/04-01-32/2248 va 19/10-68220-sonli qo'shma xatlariga asosan 2022 yilda Soliq kodeksida Vobkent tumani bo'yicha yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligida mo'ljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq miqdori 20,0 mln.so'm hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori 172,0 so'm belgilanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi moliya bo'limi hamda tuman davlat soliq inspeksiyasining tuman hududlarini iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining kelgusi yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognoz ko'rsatgichlaridan kelib chiqib, tuman bo'yicha 2022 yilda yuridik va jismoniy shaxslarning bazaviy yer solig'i stavkalarining mutlaq miqdorlariga

nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlarining iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 2022 yilda Vobkent tumani uchun mutloq miqdorda belgilangan yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlarining iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) 2022 yilda Vobkent tumani uchun mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tumanning mahalliy budjet prognozlarini inobatga olib, 1 va 2-ilovalarga asosan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tuman hududida joylashgan mahallalar kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tuman hududida joylashgan mahallalar kesimida yuridik va jismoniy shaxslar uchun 2022 yilda belgilangan soliq stavkalarini joriy yilning 31 dekabr kuniga qadar tumandagi soliq organiga taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Tuman hokimligi apparati matbuot xizmati (Sh.Sharopov), “Vobkent hayoti” tuman gazetasi tahririyati (O‘.Istatov) ushbu qaror bilan ma’qullangan Vobkent tumani bo‘yicha 2022 yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalarini “Vobkent hayoti” tuman gazetasida hamda tuman hokimligining rasmiy web-saytida e’lon qilsin.

8. Xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashining 2020 yil 28 dekabrdagi 131/24-VI-sonli qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Mahalla fuqarolar yig‘inlarining iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, 2021 yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari” 2022 yil 1 yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin hamda tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu qaror 2022 yil 1 yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash Raisi **F.Umarov**

Халқ депутатлари Вобкент туман
Кенгашининг
2021 йил 30 ноябрдаги
VI-50-105-2-33-K/21-сон қарорига
1-илова

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 2022 yilda Vobkent tumani uchun mutloq miqdorda belgilangan yer solig‘iningbazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar MIQDORLARI

T.R	Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi	Yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)
1	Latifsobungar MFY	1,20	24 038 400,0
2	Shakarkent MFY	1,20	24 038 400,0
3	Niyozxo‘ja MFY	1,20	24 038 400,0
4	Shohnigor MFY	0,80	16 025 600,0
5	Chorbog‘kent MFY	1,00	20 032 000,0
6	Shirin MFY	1,00	20 032 000,0
7	Qo‘qin MFY	1,00	20 032 000,0
8	Guliston MFY	1,00	20 032 000,0
9	Arabxona MFY	1,00	20 032 000,0
10	Kosari MFY	1,00	20 032 000,0
11	Mo‘minobod MFY	1,20	24 038 400,0
12	Beshrabod MFY	1,00	20 032 000,0
13	Hajuvon MFY	1,00	20 032 000,0
14	Mirvoshi MFY	1,00	20 032 000,0
15	Changaron MFY	1,00	20 032 000,0
16	Cho‘rikalon MFY	1,00	20 032 000,0
17	So‘fidehqon MFY	1,00	20 032 000,0
18	G‘aribshoh MFY	0,80	16 025 600,0
19	Ko‘lxatib MFY	1,00	20 032 000,0
20	Teraklik MFY	0,80	16 025 600,0
21	Rozmoz MFY	0,80	16 025 600,0
22	Xo‘jarabod MFY	1,00	20 032 000,0
23	Sariosiyo MFY	0,80	16 025 600,0
24	Kumushkent MFY	1,00	20 032 000,0
25	Bozorjoyi MFY	1,00	20 032 000,0
26	Anjirbog‘ MFY	1,00	20 032 000,0
27	Ko‘liodina MFY	1,00	20 032 000,0
28	Xayrabod MFY	0,80	16 025 600,0
29	O‘zbakon MFY	0,80	16 025 600,0

30	Shanba MFY	0,80	16 025 600,0
31	Qatag‘an MFY	0,80	16 025 600,0
32	Ponob MFY	1,00	20 032 000,0
33	Nayman MFY	0,80	16 025 600,0
34	Xayrxush MFY	0,80	16 025 600,0
35	Xalach MFY	1,00	20 032 000,0
36	Diyor MFY	0,80	16 025 600,0
37	Vobkent MFY	1,20	24 038 400,0
38	Charmgaron MFY	1,20	24 038 400,0
39	Shifokor MFY	1,20	24 038 400,0
40	Do‘stlik MFY	1,20	24 038 400,0
41	Istiqlol MFY	1,20	24 038 400,0
42	Kulolchi MFY	1,20	24 038 400,0
43	Rabotoxun MFY	1,20	24 038 400,0
44	Quruvchi MFY	1,20	24 038 400,0

Халқ депутатлари Вобкент туман
Кенгашининг
2021 йил 30 ноябрдаги
VI-50-105-2-33-K/21-сон қарорига
2-илова

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) 2022 yilda Vobkent tumani uchun mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo‘laniladigan koeffitsiyentlar

MIQDORLARI

T.R	Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi	Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun	
		Koeffitsent miqdori (0,7 dan 3,0 gacha)	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	Latifsobungar MFY	1,20	206,40
2	Shakarkent MFY	1,20	206,40
3	Niyozxo‘ja MFY	1,20	206,40
4	Shohnigor MFY	0,80	137,60
5	Chorbog‘kent MFY	1,00	172,00
6	Shirin MFY	1,00	172,00
7	Qo‘qin MFY	1,00	172,00
8	Guliston MFY	1,00	172,00
9	Arabxona MFY	1,00	172,00
10	Kosari MFY	1,00	172,00
11	Mo‘minobod MFY	1,20	206,40
12	Beshrabod MFY	1,00	172,00
13	Hajuvon MFY	1,00	172,00
14	Mirvoshi MFY	1,00	172,00
15	Changaron MFY	1,00	172,00
16	Cho‘rikalon MFY	1,00	172,00
17	So‘fidehqon MFY	1,00	172,00
18	G‘aribshoh MFY	0,80	137,60
19	Ko‘lxatib MFY	1,00	172,00
20	Teraklik MFY	0,80	137,60
21	Rozmoz MFY	0,80	137,60
22	Xo‘jarabod MFY	1,00	172,00
23	Sariosiyo MFY	0,80	137,60
24	Kumushkent MFY	1,00	172,00
25	Bozorjoyi MFY	1,00	172,00
26	Anjirbog‘ MFY	1,00	172,00
27	Ko‘liodina MFY	1,00	172,00
28	Xayrabod MFY	0,80	137,60
29	O‘zbakon MFY	0,80	137,60

30	Shanba MFY	0,80	137,60
31	Qatag‘an MFY	0,80	137,60
32	Ponob MFY	1,00	172,00
33	Nayman MFY	0,80	137,60
34	Xayrxush MFY	0,80	137,60
35	Xalach MFY	1,00	172,00
36	Diyor MFY	0,80	137,60
37	Vobkent MFY	1,20	206,40
38	Charmgaron MFY	1,20	206,40
39	Shifokor MFY	1,20	206,40
40	Do‘stlik MFY	1,20	206,40
41	Istiqlol MFY	1,20	206,40
42	Kulolchi MFY	1,20	206,40
43	Rabotoxun MFy	1,20	206,40
44	Quruvchi MFY	1,20	206,40